

INGLIZ HAMDA O‘ZBEK ERTAKLARIDA G‘AROYIB HAYVONLAR VA QUSHLAR OBRAZI

Andijon davlat universtiteti tadqiqotchisi
Abdullayeva Xurshidaxon Ne’matjonovna,
Khurshidakhon.abdullayeva.86@gmail.ru

Annatsiya . Ushbu maqolada o‘zbek hamda ingliz sehri ertaklaridagi g‘aroyib hayvonlar va qushlar obrazlarining differensial va analogik jihatlari komparativistik tahlil qilingan. Sehri ertaklarning o‘ziga xos badiiy jihatlari ikki tilda ham keng yoritilgan. G‘aroyib hayvonlar va qushlar asosan ko‘makchi obrazlar sifatida ikki xalq epic asarlarida keng qo‘llanilgan.

Kalit so‘zlar: zoomorf, bulbuligo‘yo, simurg‘, anqo, olovli qush ornitomorf.

Аннотация. В данной статье сравниваются дифференциальный и аналогичный аспекты образов диковинных животных и птиц в узбекских и английских волшебных сказках. Уникальные художественные аспекты волшебных сказок широко освещены на обоих языках. Странные животные и птицы в основном используются в качестве второстепенных персонажей в эпических произведениях двух народов.

Ключевые слова: зооморф, булбулигойо, симург, анко, огненная птица, орнитоморф.

Annotation. This article compares the differential and analogical aspects of the images of strange animals and birds in Uzbek and English magical tales. The unique artistic aspects of magical tales are widely covered in both languages. Strange animals and birds are mainly used as supporting characters in epic works of two peoples.

Key words: zoomorph, bulbuligoyo, simurg, anko, fiery bird, ornithomorph.

G‘aroyib xususiyatli hayvonlar va qushlar obrazining ishtiroki sehri ertaklarga xos muhim xususiyatlardan biridir. Bu xususiyat ingliz va o‘zbek sehri ertaklariga baravar xos.

Zoomorf shakldagi g‘aroyib hayvon va qushlar timsoli ikki turga bo‘linadi:

a) xayoliy; b) hayotiy. Aytaylik, uchar ot, oltin baliq, oltin tuyoqli kiyik kabi jonzotlar hamda bulbuligo‘yo, simurg‘, anqo, davlat qushi singari ornitomorf xayoliy timsollar g‘aroyib jonzotlardir.

Inglizlarning “Eshak, stol va to‘qmoq” – “The Ass, the Table, and the Stick” ertagida *g‘aroyib xislatli eshak* obrazi keltirilgan. Shuning uchun bu obraz ertak sarlavhasida birinchi o‘rinda qo‘yilgan.

Bu ertak o‘zbek xalqining “Ur, to‘qmoq” ertagiga o‘xshaydi. Faqat o‘zbek xalq ertagida *qulog‘idan tanga tushadigan eshak* obrazi o‘rnida qaynar xumcha obrazi qo‘llanilgan. Sehrli stol o‘rnida ochil dasturxon obrazi berilgan. Sehrli tayoq esa ur to‘qmoq deb ifoda etilgan. Sehrli narsalarning o‘g‘rilari yoshida ham farq bor. Ingliz ertagida o‘g‘ri yoshi katta odam bo‘lsa, o‘zbek xalq ertagida bu o‘g‘rilikni bolalar qiladi.

Bu o‘rinda aytish kerakki, o‘zbek xalq ertaklarida sehr kuchi, tilsim qudratiga ega eshak obrazi uchramadi. Shuningdek, gapiradigan va maslahat beradigan tovuq obrazi ham o‘zbek xalq ertaklarida kuzatilmadi. Bunday obraz inglizlarning “Keyt – yong‘oq chaqqich” (“Kate Crackernuts”) ertagida uchraydi. Unda hikoya qilinishicha, qadim zamonlarda bir qirol va qirolicha bo‘lib, ularning juda katta yer mulklari bor ekan. Qirolning Anna ismli qizi va qirolichaning ham Keyt ismli qizi bo‘lgan ekan. Anna qirolichaning qizidan ko‘ra chiroyliroq bo‘lib, bundan qirolichaning jahli chiqar va uning go‘zalligidan qandaydir yo‘l bilan qutulishni o‘ylab rashk qilib yurarkan. Uning bir *sirli xususiyatli ona tovug‘i* bor ekan. Bir kuni qirolicha shu tovug‘iga o‘gay qizidan qanday qutulish yo‘lini so‘rab, maslahat solibdi. Tovuq esa qirolning qizini oldiga jo‘natishini tayinlabdi. Shunday qilib, qirolicha ertasi kuni ertalab Annani chaqiribdi va unga: “Azizim, tovuqning iniga borib bir nechta tuxum olib kel”, – debdi. Anna yo‘lga chiqibdi. U avval oshxonaga kiribdi va ozgina non qotirmalaridan olib yeb ketaveribdi. U tovuq oldiga yetib borib, undan tuxum berishini so‘rabdi. Tovuq unga qarab: “Anavi qozonning og‘zini och va qara”, – debdi. Qiz uning aytganini qilibdi, lekin hech narsa sodir bo‘lmabdi. Shunda tovuq qizga: “O‘gay onangga ayt, u eshiklarni yaxshilab yopib qo‘ysin”, – deb tayinlabdi. Qiz uyiga qaytib kelgach, qirolichaga

tovuqning gaplarini yetkazibdi. Qirolicha uning gaplarini eshitib, qizning nimadir yeb ketganini sezibdi va ertasi kuni ertalab uni och holatda yana o'sha yerga jo'natibdi. Anna yo'lga chiqibdi va ketayotib yo'lda bir to'da qishloq odamlarining no'xat terayotganlarini ko'ribdi. U odamlar bilan xushmuomalalik qilib suhbatlashibdi. Ular esa qizga biroz no'xat berishibdi. Anna yo'l-yo'lakay ana shu no'xatlarni yeb ketibdi. U tovuq oldiga yetib boribdi va undan yana tuxum berishini so'rabdi. Tovuq esa avvalgi kabi qizga qozonning og'zini och qarashini buyuribdi. Qiz uning aytganini qilibdi, lekin yana hech narsa sodir bo'lmabdi. Bundan tovuqning jahli chiqibdi va Annaga qarab: "O'gay onangga borib ayt, olov juda uzoq ekan, shuning uchun qozon qaynamadi", –debdi. Anna tovuqning bu gapini ham o'gay onasiga yetkazibdi. Uchinchi kuni ertalab qirolichaning o'zi qiz bilan birga yo'lga chiqibdi. Bu gal Anna hech narsa yeyolmagani uchun qozon qopqog'ini ko'targani zahoti uning boshi qo'yning kallasiga aylanib qoladi. Buni ko'rgan qirolicha juda mamnun bo'lib, uyiga qaytadi. Ammo uning o'z qizi Keyt doka kuylagini olib Annaning boshiga o'raydi va ular ikkalasi baxtlarini topish uchun uzoq safarga chiqib ketadilar. Shu safar davomida Keyt Annaning dardiga davo topishga ko'maklashadi.

Bu ertakda sehrli qozon obrazidan ham foydalanilgan. G'aroyib tovuq uning egasi qilib ko'rsatilgan.

"The Golden Goose" (Oltin g'oz) ertagida uchta aka-ukadan faqat eng kichigi och odam bilan yegulik va ichimlikni taqsimlaydi va mukofot sifatida *oltin g'oz* oladi.

Inglizlarning "Lazy Jack" ertagi Angliya hamda Britaniya ertaklarida bir xil lavhada uyg'unlashadi. Yalqov Jak bir qancha joyda ishlab hech omadi yurishmaydi, hamma uning ustidan yalqovligi, nodonligi sababli kuladi. Qirolning qizi betop bo'lib, kulish nima bilmay qoladi. Qirol kim uni kuldirsa, unga qizini berishga va'da beradi. Kunlardan bir kun Jak eshagini ko'tarib, o'zi terlab kelganini ko'rib turgan malika xandon otib kulib yuboradi. Buni ko'rgan shoh Jakni kuyov qiladi. Jak va onasi bir umr saroyda baxtli bo'lib yashaydilar.

Inglizlarning "The Golden Goose" va o'zbeklarning "Ne'matjon va

Tolibjon¹ ertagida Murg'i musaffo degan qush oltin tuhum qo'yib, qahramonni boyu badavlat qiladi.

O'zbek va ingliz sehrlilari ertaklarida g'aroyob mavjudodlar, g'aroyibotlar, g'aroyib hayvonlar va qushlar ham ishtirok etadi.

Qadimgi sehrlilari ertaklarda grek xalqining an'anaviy qushi bo'lmish phoenix qushi yetakchi obraz sifatida juda ko'p qo'llanilgan. Feniks qushi – o'lmas qush bo'lib, u uzluksiz qayta tiklanadi yoki boshqa yo'l bilan qayta tug'iladi. U Yunon mifologiyasining bir qismi bo'lsa-da, Misr va Fors kabi ko'plab madaniyatlarda o'xshashlariga ega. Quyosh bilan bog'langan feniks o'zidan oldingi sherigining kulidan ko'tarilib, yangi hayotga ega bo'ladi. Ba'zi rivoyatlarda u alanga olib yonib nobud bo'ladi, desa, boshqalari u qayta tug'ilishdan oldin shunchaki o'lib, parchalanadi,² deydi. Folklorshunoslar qo'llaydigan vosita – “Xalq adabiyoti motivlari indeksi” – amerikalik folklorshunos Stit Tompson tomonidan 1932-1958 yillarda tuzilgan olti jildlik motivlar katalogida feniks B32³ motivi sifatida tasniflangan.

Jahon folklorshunosligida qush obrazining juda ko'p turlari mavjud bo'lgan. Masalan, O'rta sharq xalq ertaklarida, asosan Turkiya sehrlilari ertaklarida Oddiy bulbul (Nightingale) (*Luscinia megarhynchos*) o'zining kuchli va chiroyli qo'shig'i bilan mashhur bo'lgan kichik qushdir. Ilgari u Turdididae turkumiga mansub bo'lgan. U ko'pincha quruqlikda yashovchi qushlar guruhiga kiradi.

Avgust Leskienning⁴ tushuntirishicha, Hazaran qushi nomi forscha hezar (“ming”) so'zidan olingan bo'lsa-da, bu nom “ming qo'shiq” yoki “ming ovoz” deb tarjima qilinadi⁵.

Aka-uka Grimmlarning “Oltin qush” (“Golden bird”), Slavyan folkloridagi Olovli qush (“Fire bird”) haqidagi ertaklarida sehrlilari qush obrazini ko'rish mumkin.

¹ Namangan ertaklari. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 1998. – B.14-169.

² Van den Broek, Roelof (1972), The Myth of the Phoenix According to Classical and Early Christian Traditions, translated by Seeger, I., EJ Brill

³ Thompson. (2001: 581).

⁴ August Leskien (German: [lɛs'ki:n]; 8 July 1840 – 20 September 1916) was a German linguist who studied comparative linguistics, particularly relating to the Baltic and Slavic languages.

⁵ Leskien, August. Balkanmärchen. Jena: Eugen Diederichs, 1915. – P.326.

Slavyan folklorida olov qushi Ohnivak⁶, Zar qushi (Zhar Bird) yoki Qushi Zar (Bird Zhar), Yorqin qush (Glowing Bird)⁷ yo Yorug'lik qushi⁸ (The Bird of Light) nomli qushlar obrazini ham uchraydi.

Asosan epik asarlarda qushlar turli xil vazifalarni amalga oshiradilar. Ba'zan podshoh yoki qahramonning otasi uning bog'ini kim buzayotganini, yoki uning qimmatbaho oltin olmalarini o'g'irlaganini aniqlash uchun, ba'zan aksincha uni kasallik yoki ko'rligidan davolash uchun qushni izlashga yuboradi. Ushbu motiv turi ingliz sehrlari eragi "Hayot suvi" ("Water of life")da⁹ keltirilgan. Unda o'g'illar o'z otalari uchun shifobaxsh dori izlashadi.

Ba'zida qush obrazi bir qasr yoki machit qura olish qobiliyatiga ega bo'lgan obraz sifatida keladi.¹⁰ Amerikalik yozuvchi Xovard Payl (Howard Pyle) tomonidan nashr etilgan "Oq qush" sehrlari eragida shahzoda uch narsa uchun "Baxt mevasi", "Yorqinlik qilichi" va "Oq qush"ni izlab topish uchun safarga chiqadi. Shahzoda Oq qushni tutib olganida, u go'zal malikaga aylanadi.¹¹

Xullas, sehrlari ertaklarning sujeti tizimida g'aroyib xususiyatli hayvonlar, insonlarning ular ko'rishiga o'tishi, sehrlari g'ayrioddiy, mifologik qushlar obrazi yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Bu bilan sehrlari ertaklarining keng syujetli ekanligi, bo'yoqdorligi juda o'tkir ekanligi o'z aksini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Namangan ertaklari. – Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 1998. – B.14-169.
2. Van den Broek, Roelof (1972), The Myth of the Phoenix According to Classical and Early Christian Traditions, translated by Seeger, I., EJ Brill.
3. Thompson. (2001: 581).

⁶ Harding, Emily J. Fairy tales of the Slav peasants and herdsmen. London: G. Allen. 1886. – P.265–292.

⁷ Tzarevich Ivan, the Glowing Bird and the Grey Wolf" In: Wheeler, Post. Russian wonder tales: with a foreword on the Russian skazki. London: A. & C. Black. 1917. – P. 93-118.

⁸ Russian Folk-Tales by Alexander Nikolaevich Afanasyev. Translated by Leonard Arthur Magnus. – New York: E.P. Dutton and Company. 1916. – P.78-90.

⁹ Water of life // A dictionary of British folk-tales in the English language, incorporating the F.J. Norton collection By Briggs, Katharine Mary. cn; Norton, F.J. (Frederick John). – P.296-583.1970.

¹⁰ The Nightingale in the Mosque. In: Fillmore, Parker. The Laughing Prince: a Book of Yugoslav Fairy Tales And Folk Tales. – New York: Harcourt, Brace and Company, 1921. – P.171-200.

¹¹ Pyle, Howard; Pyle, Katharine. The Wonder Clock: Or, Four & Twenty Marvellous Tales, Being One for Each Hour of the Day. – New York: Printed by Harper & Brothers. 1915 (1887). – P. 107-120.

4. August Leskien (German: [lɛs'ki:n]; 8 July 1840 – 20 September 1916) was a German linguist who studied comparative linguistics, particularly relating to the Baltic and Slavic languages.
5. Leskien, August. *Balkanmärchen*. Jena: Eugen Diederichs, 1915. – P.326.
6. Harding, Emily J. *Fairy tales of the Slav peasants and herdsmen*. London: G. Allen. 1886. – P.265–292.
7. "Tzarevich Ivan, the Glowing Bird and the Grey Wolf" In: Wheeler, Post. *Russian wonder tales: with a foreword on the Russian skazki*. London: A. & C. Black. 1917. – P. 93-118.
8. *Russian Folk-Tales* by Alexander Nikolaevich Afanasyev. Translated by Leonard Arthur Magnus. – New York: E.P. Dutton and Company. 1916. – P.78-90.